

BIR VALENTLI YADRO PREDIKATIV 2 KOMPONENTLARNING IFODALANISHI

Mahmudjonova Mehribon Xurshedovna

Samarqand davlat chet tillar insituti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillari gap tarkibida yadro predikativ 2 (kesim – NP₂) o'rnida keluvchi bir valentli sintaktik birliklar qatnashgan gaplar tahlil qilinib, ularning morfologik xususiyatlari va boshqa sintaktik birliklar bilan bog'lanish imkoniyatlari o'rganilgan. Tahlil natijalari asosida bir valentli yadro predikativ 2 komponentlarning ingliz va o'zbek tillarida o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sintaktik aloqa, valentlik, yadro predikativ aloqa, kesim, ot-kesim, fe'l-kesim.

Yadro predikativ 2 komponenti an'anaviy grammatik termin bilan atalganda kesim vazifasidagi sintaktik birlik hisoblanadi. An'anaviy grammatikada kesimning ifodalanishiga ko'ra asosiy ikki guruhi farqlanadi, bular *fe'l-kesim* va *ot-kesim*. Ingliz tilida V+pr+N, V+N shaklidagi qo'shma fe'llar yadro predikativ 2 komponenti o'rnida kelib, yadro predikativ 1 komponentga bir sintaktik aloqa asosida bog'lanadi.

Shuningdek, yadro predikativ 2 komponent *there is/are* oboroti bilan, bog'lama fe'l bilan birikib keluvchi sifat, son, ot, holat kategoriyasi kabi unsurlar bilan ham ifodalanishi mumkin.

1. *There was no time to worry* (RRHC, 22).

Berilgan gapda yadro predikativ 2 komponenti yadro predikativ 1 komponenti bilan yadro predikativ aloqa asosida bog'lanib, sonda moslashgan, ya'ni yadro predikativ 1 komponenti sanalmaydigan mavhum ot (*time*) bo'lgani uchun *there was* ham birlikda qo'llangan.

2. *Other items were so precious* (RRHC, 20).

3. *You're the bravest little girl* (RRHC, 24). → *You're the ... girl*.

Berilgan gaplarda ham yadro predikativ 2 o'rnida kelgan *to be* bog'lama fe'li asosiy mazmunni anglatuvchi *precious* va *girl* so'zlarini *items* va *you* sintaktik birliklar bilan bog'lashga xizmat qilgan hamda ular bilan moslashgan holda ko'plik shaklini olgan, ya'ni bog'lama fe'lning son kategoriyasi undan keyin kelgan elementning emas, balki yadro predikativ 1 elementining soni bilan moslashmoqda

Ingliz tilida yadro predikativ 2 komponenti modal fe'l + fe'lning infinitive shakli bilan ham ifodalanishi mumkin, shuningdek, modal fe'l o'rnida modal ma'no anglatuvchi birikmalar ham qo'llaniladi. Bunda yadro predikativ 2 komponenti yadro predikativ 1 komponentining voqelikka modal munosabatini aks ettiradi.

Yadro predikativ 2 sintaktik birliklar modal ma'noni quyidagi vositalar yordamida ifodalaydi:

be able + to Infinitive,

may/might (not) + Bare Infinitive,

may/might + be + Adjective/Noun,

may/might + have been + Noun,

have (got) + to Infinitive,

can/could (not) + be + past participle,

can/could + Bare Infinitive,

can/could (not) + Bare Infinitive + to Infinitive,

can/could + have been + Past Participle

Yuqoridagi misollarning tahlilini ko'rgazmali ifodasak, NP₂ o'rnida kelgan modal birikmalar yetti xil strukturaga egaligi aniqlanadi.

Gap tarkibida NP₂ o'rnida o'timli harakat va holat fe'llari kelishi mumkin. Bunday fe'llar turli zamon shakllarida bo'lib, albatta o'ziga tobe komponent talab qiladi. Gapdagi tobe komponentning o'zi ham boshqa bir tobe bo'lakka ega bo'lishi kuzatiladi.

Ingliz tilida kopyulativ fe'llar mavjud bo'lib, ular ba'zi manbalarda bog'lama fe'l (link verb) bilan bir xil talqin etiladi [1], boshqalarida esa bog'lama fe'ldan farqlanadi [2]. Quydagi misollarda NP₂ o'rnida kelgan copulyativ fe'l + Sifat (Adjective) birikmasi bitta sintaktik birlik bo'lib, u NP₁ komponent bilan yadro predikativ aloqaga kirishadi va u bir valentli komponent hisoblanadi.

4. *Olive's face went steely (RRHC, 24).*

Ingliz tilida NP₂ komponenti shuningdek, fe'l + fe'l ko'rinishidagi birliklar bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunda birinchi fe'l grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'ladi, ya'ni tuslanadi, ikkinchi fe'l esa infinitiv yoki gerundiy shaklida bo'ladi, biroq asosiy leksik ma'no ikkinchi fe'ldan anglashiladi. Bunday qurilmalar o'zbek tilidagi ko'makchi fe'lli fe'l qo'shilmasiga to'g'ri keladi.

O'zbek tilida bir valentli yadro predikativ 2 (NP₂) komponent asosan fe'l bilan ifodalanadi. O'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi kesimning turlari farqlanadi [3]: fe'l-kesim va ot-kesim. Fe'l-kesim fe'lning turli ma'noviy va strukturaviy turlari bilan ifodalanadi. Xususan, o'zbek tilida yasama fe'lning ishlatilishi ko'p uchraydi, ular yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil bo'ladi. Keng tarqalgan fe'l yasovchi qo'shimcha bu *-la* bo'lib, u ot va sifatdan fe'l hosil qiladi (*ishla, oqla, gulla*). Shuningdek, murakkab/qo'shma fe'llar ham mavjudki, ular OT + FE'L yoki SIFAT + FE'L, RAVISH + FE'L tuzilishiga ega bo'ladi. O'zbek tilining o'ziga xos jihati shundaki, FE'L + FE'L strukturasi bilan yangi fe'l hosil qilib bo'lmaydi. Bunday qurilma *ko'makchi fe'lli fe'l qo'shilmasi* deb yuritiladi [4].

NP₂ komponenti otdan yasalgan o'timsiz fe'llar bilan ifodalanishi mumkin:

5. *Daraxtlar qayta kurtaklaydi (QA, 7).*

6. *Ular hayotdan birgalikda zavqlanishardi (QA, 92).*

O'zbek tilida NP₂ komponenti modal fe'l yoki modal ma'noli birikmalar bilan ham gapda voqelanadi. O'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda shunday bir o'ziga xoslik borki, gapda NP₁ komponenti ko'rsatilmaydi, biroq u oson tiklanadi, sababi NP₂ o'rnidagi sintaktik birliklar shaxs-son qo'shimchalariga ega bo'ladi va bu eganing shaxsi va soniga ishora qiladi.

NP₂ komponenti o'rnida ko'makchi fe'lli fe'l qo'shilmasi kelganini kuzatamiz. Ko'makchi fe'llar asli mustaqil fe'llar bo'lib, boshqa bir mustaqil fe'lning ravishdosh shaklidan keyin keladi va o'sha harakatning boshlanishi, davom etishi, tugashi, birdan bajarilishi kabi ma'nolarni anglatadi [4]. O'zbek tilida NP₂ o'rnida kelgan bir valentli sintaktik birliklar ot, sifat, son va ravishlar bilan ham ifodalanishi mumkin.

Umuman olganda, o'zbek tilida yadro predikativ 2 komponent o'rnida sodda va yasama fe'l, qo'shma va murakkab fe'l, o'timli va o'timsiz fe'l, harakat va holat fe'li bevosita, shuningdek, ot, sifat, son, olmosh, ravish va kesimlik belgilari hisoblanuvchi bog'lamalar – shaxs-son qo'shimchalari, *edi, ekan* so'zlari yordamida NP₁ komponenti bilan bog'lanib keladi. Bunda NP₂ uyushiq bo'laklardan iborat bo'lmasligi lozim, aks holda u ikki valentli bo'lib qoladi.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida yadro predikativ 2 komponentning ifodalanishini tahlil qilar ekanmiz, bu ikki til o'rtasidagi farqlarning guvohi bo'ldik. Bu farqlar asosan ularning turli tillar tizimidagi oidligidan kelib chiqadi. O'zbek tilida NP₂ o'rnidagi elementlar bir qator kelishik qo'shimchalari, egalik affikslari bilan kelsa, ingliz tilida bu holat kuzatilmadi. Ingliz tilida konversiya usulida hosil bo'lgan fe'llar mavjud bo'lsa, o'zbek tilida bunday holat kuzatilmaydi, balki yasama fe'llar katta qismni tashkil qiladi. O'zbek tilida fe'ldan fe'l yasalmasligi kuzatiladi. O'xshash tomonlari har ikkala tilda ham bir valentli NP₂ komponentlar faqatgina NP₁ komponent bilan sintaktik aloqaga kirishadi, turli so'z turkumlari bilan ifodalana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/Copula_\(linguistics\);https://www.studysmarter.co.uk/explanations/english/english-grammar/copula-verbs/](https://en.wikipedia.org/wiki/Copula_(linguistics);https://www.studysmarter.co.uk/explanations/english/english-grammar/copula-verbs/)
2. Khaimovich B.S., Rogovskaya B.I. A Course in English Grammar. – Moscow: Vysshaya shkola, 1967. – P. 253.
3. Махмудов Н, Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент, 1995. – Б. 46.
4. Хожиев А. Феъл. – Тошкент. 1973. – Б. 26.